# OILA - NIKOH MUNOSABATLARINING YOSH AVLODNI TARBIYALASHDAGI TUTGAN O'RNI

**Sultonova Nazokatxon Otabek qizi**
*FarDu talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada oila - nikoh munosabatlarining yosh avlodni tarbiyalashdagi tutgan o'rni haqida nazariy ma'lumotlar, oila-nikoh munosabatlari,farzand tarbiyasida ota-onaning o'rni haqida psixologik maslahatlar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Oila, nikoh, ota-ona, farzand tarbiyasi, oila munosabatlari, oilaviy qadriyatlar.*

Oila qadimgi davrlardan buyon muqaddas hisoblanib kelingan, biroq er bilan xotinning qonuniy nikohdan o'tib bir birlari bilan baxtli hayot kechirishlari bilan cheklanib qolmaydi. Balki ular nasl nasabining davomchisi bo'lgan farzandlar tarbiyasi ularning komil inson bo'lib voyaga yetishi bevosita oilaga bog'likdir. Qadimda er-xotin munosabatlarini ayniqsa, ayolning o'rnini yuqori darajada baholaganlar. Demak ayollarning o'rni mavqei yurish turishi o'zlarini tutishi o'zlariga emas, balki butun xalqqa ta'sir yetishi mumkinligini tushunib yetishgan[1].

O'zbek oilasi xalqimizning eng ezgu ma'naviy, ahloqiy qadriyatlarni nurli an'analarni bir tomchi suvdagi quyoshdek o'zida mujassam etgan. O'tgan ajdodlar, ota-onalarga, keksalarga izzat, hurmatni farzandlarimiz oilada o'rganishadi. O'sib kelayotgan oila kamolati va inqirozi ham oilaga bog'liq. Agar oila sog'lom, ota-ona ma'naviy fazilatlar egasi, o'zaro ehtiromli, jamiyat qadriyatlariga e'tiborli hamda e'tiqodli bo'lishsa bunday oilalardan yomon farzand yetishib chiqmaydi.

O'tmishda oila munosabatlariga juda katta e'tibor bilan qaralib, kelin tanlashda bo'lg'usi kelinning yetti avlodi surishtirilgan. Chunki shunday qilgandagina oila ildizlari baquvvat bo'lib, sog'lom avlod dunyoga keladi, deb bilganlar. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasisiga ko'ra xalq davlatning birdan bir manbai bo'lsa, oila xalq manbai bo'lib, oilaning asosiy manbai esa farzand hisoblanadi. Konstitutsiyamizning 63-66 moddalari bevosita oila, nikoh ota-onalarning o'z farzandlarini boqishi tarbiyalashi, onalik bolalikni davlat tomonidan muhofaza etilishi, voyaga yetgan farzandlarning o'z ota-onalariga g'amxo'rlik qilishlariga bag'ishlangan. Hozirgi vaqtda ma'naviy-ma'rifiy jihatdan barkamol oilalarni vujudga keltirishga, oilaning bosh tarbiyachilik mavqeini ko'tarishga alohida diqqat eьtibor qaratilmoqda. Chunki jamiyatni rivojlantirishda qonunchilikni ta'minlash, farzandlar ongiga umuminsoniy qadriyatlar mustaqillik g'oyalarini singdirishda oilaning o'rni beqiyosdir.[2]

Respublikamizda oilalarning ijtimoiy manfaatlarini himoyalash tizimi tobora takomillashib bormoqda. Kam ta'minlangan oilalarni davlat tomonidan moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, moddiy yordamga muhtoj oilalar farzandlarini o'quv

anjomlari bilan ta'minlashga eътibor kuchaytirilmoqda. Davlatimizda onalik va bolalik qonun bilan himoya qilingan. Nikoh yoshiga yetmaganlar bilan nikohdan o'tish mumkin emas. Ayolning homiladorlik vaqtida va bola tug'ilgandan keyin bir yil mobaynida, er nikohdan ajralish to'g'risida xotinning roziligisiz ish qo'zg'atishga xaqli emas. Bunday qoidalar tug'iladigan bolaning hamda yosh onaning ongi shuuri to'la shakllanib ulgurmagan qizlarning haq-xuquqlarini himoyalashga qaratilgan.[3]

O'zbekiston Respublikasining 1998-yilda qabul qilingan "Oila kodeksi"dan kelib chiqib, oilaning moddiy- ma'naviy tomonlarini, er-xotinning burchi va majburiyatlarini, ularning farzandlari ota-onalari, hamda qarindosh- urug'lariga bo'lgan munosabatlarini huquqiy jihatdan himoyalash yanada mustahkamlandi. Oila azaldan mehr-muhabbat bir-biriga hurmat e'tibor, ishonch, sadoqat, insof va diyonat o'zaro hamkorlik va hamjihatlik, do'stlik vatanparvarlikning asl beshigi bo'lib kelgan.

Prezidentimiz aytganlaridek, "Bola tug'ilgan kundan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an'analar qadriyatlar, urf- odatlar bolaning zuvalasini shakllantiradi. Eng muhimi farzandlar- oilada oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi. Darxaqiqat jamiyatning ma'naviy va ahloqiy jihatdan sog'lom va mustahkam bo'lishi ham oiladan boshlanadi". Shuning uchun ham oila bizda jamiyatning asosiy bo'g'ini sifatida e'tirof etilgan. Chunki mehnattga ma'naviy- moddiy boyliklarga munosabat kabi, inson harakatlarining asoslari dastlab mana shu oilada shakllanadi. Yurtboshimiz "ota-onalar bolalar tarbiyasini o'z xoliga tashlab qo'yganliklari, beparvolik, loqaydliklari noshud farzandlarning ana shunday gumrohlik, zolimlik va badbaxtlik ko'chasiga kirib ketishlariga zamin yaratadi",- degan edi.

Ota-onaning farzandlar oldidagi majburiyatlari, farzandlarning ota-ona oldidagi qarzlari behisobdir. Birinchidan, dunyoga kelgan bolasiga yaxshi nom qo'yish, yaxshi muallim qo'liga berib savodini chiqarish, kasb-hunar o'rgatish, farzandining boshini qovushtirish ota-ona uchun eng oliy havas bo'lsa, ikkinchidan, o'z oilasiga mehr-oqibat ko'rsatish, ota-onaning xizmatida bo'lish, qarigan chog'larida ularni e'zozlash ham farzand oldidagi muqaddas burch sanaladi.[2]

Avvalambor, bolaga eng noyob xislatlar oilada singdiriladi. Eng muhimi, farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi".

Inson borki, kelajakda o'z farzandlarining xuzur-halovatini, baxt-saodati va kamolini ko'rishni orzu qilib yashaydi. Shu yo'lda kurashadi, mehnat qiladi, kerak bo'lsa jonini ham ayamaydi. Zero, bolalarini har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, ularning boshini qovushtirib, xo'jalik yuritish va oila tebratishga o'rgatish, jamiyatning iqtisodiy hamda ijtimoy taraqqiyotini tezlashtirishga munosib hissa qo'shadigan bunyodkor va ijodkor, qa'tiyatli va e'tiqodli, yurtparvar avlodni voyaga yetkazishga ko'maklashish har bir oila, har bir ota-onaning davlat va jamiyat oldidagi muqaddas burchidir. Qars ikki qo'ldan chiqadi deb bekorga aytmaganlar.[4.] Bugungi kunda oila boshliqlarining davlat va jamiyat oldidagi burch va majburiyatlarini yanada teranroq tushunadigan, ota-onalik sharafini yuqori darajada his etadigan payti keldi. Oilada

mehribon ota, mehribon ona bo'lish, oila xaqida hamxo'rlik qilish yaxshi narsa, albatta. Biroq bunday g'amxo'rlik oddiy ro'zg'or tirikchiligi, oilani moddiy ta'minlashdan iborat bo'lib qolmasligi kerak. Oiladagi sog'lom muhit uchun oilaning barcha aьzolari babbaravar javobgardir. Shu munosabat bilan oilalarning vatan oldidagi burch va vazifalarini qonuniylashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar ko'rilmog'i, qonunlarimizda masalaning bu tomoniga ham ko'proq e'tiborni jalb etish maqsadga muvofiq bo'lardi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Ихтиёр Бахтиёрович Хамрақулов (2021). КИЧИК САНОАТ ЗОНАЛАРИНИ БАРПО ЭТИШ ВА РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ. Scientific progress, 2 (7), 586-592.
2. Ихтиёр Бахтиёрович Хамрақулов (2022). КИЧИК САНОАТ ЗОНАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ МОҲИЯТИ ВА ЎЗИГА ХОС ҲУСУСИЯТЛАРИ. Scientific progress, 3 (1), 328-334.
3. Хамрақулов Ихтиёр Бахтиёрович (2022). КИЧИК САНОАТ ЗОНАЛАРИ ИНВЕСТИЦИОН ФАОЛЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ СТРАТЕГИК ИМКОНИЯТЛАРИ. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2 (Special Issue 2), 140-146.
4. Хамракулов, И. Б. (2021). Теоретические основы создания и развития малых промышленных зон. In НАУКА СЕГОДНЯ: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ (pp. 49-51).
5. Khamrakulov, I. (2022). Organizational and economic foundations for creating small industrial zones in Uzbekistan. Asian Journal of Multidimensional Research, 11(10), 233-237.
6. Asqarova, A., Xonkeldiyeva, K., Abdumutalibova, X., & Murotova, D. (2021). Issues of increasing the competitiveness of light industry enterprises. In Наука сегодня: проблемы и пути решения (pp. 48-49).
7. Ханкелдиева, Г. Ш. (2017). Перспективы развития электроэнергетической отрасли Республики Узбекистан в условиях модернизации экономических отношений. Бюллетень науки и практики, (12 (25)), 293-299.
8. Хайдаров, Х., Нурматова, И., & Хонкелдиева, К. (2021). Факторы формирования сильного конкурентного рынка в текстильной промышленности. In НАУКА СЕГОДНЯ: ВЫЗОВЫ И РЕШЕНИЯ (pp. 59-61).
9. Ханкелдиева, Г. Ш. (2017). Особенности корпоративного управления в акционерных обществах с государственным участием. Бюллетень науки и практики, (11 (24)), 357-363.
10. Asqarova, A. M., Xonkeldiyeva, K. R., Nomonjonova, F. U., Qodirova, S. Q., & Arabxonova, X. A. (2021). Classification Of Competition In The Market Of Light

Industrial Goods And The Factors That Shape It. The American Journal of Management and Economics Innovations, 3(01), 43-46.

11. Asqarova, A. M., Xonkeldiyeva, K. R., Abdukarimova, R. A., Xudoyberdiyeva, X. B., & Egamberdiyeva, N. B. (2021). Theories Of Marketing Strategies To Increase The Competitiveness Of Light Industry Enterprises. The American Journal of Management and Economics Innovations, 3(01), 40-42.

12. Хонкелдиева, К., Рахимова, Х., & Хасанхужаева, У. (2021). Предупреждение преступности среди несовершеннолетних. In Наука сегодня: факты, тенденции, прогнозы (pp. 34-35).

13. Xonkeldiyeva, K., & Xo'jamberdiyev, J. (2020). Экономика и социум.

14. Xonkeldiyeva, K. R. (2021). Features of management of textile industry enterprises based on the cluster approach. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(9), 780-783.

15. Zokirova, S. X., Akbarov, R. F., Isagaliyeva, S. M., & Xonkeldiyeva, K. R. (2021). Sand Distribution In Central Fergana. The American journal of interdisciplinary innovations and research, 3(01), 113-117.

16. Zokirova, S. X., Ahmedova, D., Akbarov, R. F., & Xonkeldiyeva, K. R. (2021). Light Industry Enterprises In Marketing Activities Experience Of Foreign Countries In The Use Of Cluster Theory. The American Journal of Management and Economics Innovations, 3(01), 36-39.

17. Xonkeldiyeva K., & Xo'Jamberdiyev J. (2020). IMPROVING ORGANIZATIONAL EFFECTIVENESS OF INDUSTRIAL PRODUCTION. Экономика и социум, (3 (70)), 145-147.

18. Зокирова, С. Х., Хамракулов, Ж. Б., & Кадирова, Н. Б. (2020). Полевая влагоемкость, влажность почв и песков Центральный Ферганы. Universum: химия и биология, (5 (71)), 5-9.

19. Хонкелдиева, К., & Мўйдинжонова, М. (2020). Актуальные проблемы решения безработицы в Республике Узбекистан. In Наука сегодня: фундаментальные и прикладные исследования (pp. 18-19).

20. Хонкелдиева, К., & Хўжамбердиев, Ж. (2020). Проблемы развития организации: управленческий и логистический аспекты. In Наука сегодня: история и современность (pp. 17-19).

21. Хонкелдиева, К., & Толибжонова, М. (2020). Механизм формирования инновационного процесса в текстильном производстве как основа адаптации к процессам глобализации. In Наука сегодня: фундаментальные и прикладные исследования (pp. 15-16).

22. Хонкелдиева, К., & Абдусатторова, З. (2020). Социальная инфраструктура как фактор социально-экономического развития региона. In Наука сегодня: фундаментальные и прикладные исследования (pp. 17-18).

23. Бахтиёрович, Ҳ. Ж. (2022). ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИ ТАЛАБАЛАРИДА ЭКОЭТИК КОМПЕТЕНТЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЖАРАЁНИГА ҚЎЙИЛИДИГАН ЗАМОНАВИЙ ПЕДАГОГИК ТАЛАБЛАР. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 3(4), 1-6.

24. Хонкелдиева, К., & Фарохиддинова, З. (2020). Гендерное равенство как ценность права. Наука сегодня: факты, тенденции, прогнозы: материа.

25. Хонкелдиева, К., & Мўйдинжонова, М. (2020). Необходимые условия обеспечения гендерного равенства. In Наука сегодня: фундаментальные и прикладные исследования (pp. 40-41).

26. Хонкелдиева, К., Рахимова, Х., & Абдусатторова, З. (2020). Проблемы развития социального обеспечения населения. In Наука сегодня: фундаментальные и прикладные исследования (pp. 42-43).

27. Хонкелдиева, К. (2020). Актуальные вопросы повышения экономического потенциала текстильной промышленности. In Наука сегодня: фундаментальные и прикладные исследования (pp. 13-15).

28. Хонкелдиева, К., & Фарохиддинова, З. (2020). Гендерное равенство как ценность права. In Наука сегодня: факты, тенденции, прогнозы (pp. 61-62).

29. Хонкелдиева, К., & Маматкулова, Ф. (2020). Социально-экономические аспекты устойчивого развития предприятия. In Наука сегодня: факты, тенденции, прогнозы (pp. 36-37).